MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEXANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	



MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH

Jalilov Jamshid G'anijonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Marketing kafedrası dotsenti, iqtisodiyot
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada iste'molchilarni tovarlar xaridiga motivlashtirish bilan bog'liq nazariyalar bayon qilingan, nafillik tushunchasi va uning xususiyatlari yoritilgan hamda iste'molchilarni tovarlar xaridiga undash jarayonida nafillik nazariyalaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, motivatsiya nazariyalari, tovarlar xaridiga iste'molchilarni motivlashtirish, nafillik, tovar nafilligi, nafillik funksiyasi, umumiy nafillik, chekli nafillik, befarqlik egri chizig'i.

Abstract. The article presents theories related to motivating consumers to purchase goods, explains the concept of utility and its key characteristics, and outlines the ways in which utility theories can be applied to encourage consumers in the purchasing process.

Key words: motivation, motivation theories, consumer motivation to purchase goods, utility, product utility, utility function, total utility, marginal utility, indifference curve.

Аннотация. В статье изложены теории, связанные с мотивацией потребителей к покупке товаров, раскрыто содержание понятия «полезность» и его ключевые характеристики, а также представлены направления использования теорий полезности в процессе стимулирования потребителей к совершению покупок.

Ключевые слова: мотивация, теории мотивации, стимулирование потребителей к покупке товаров, полезность, полезность товара, функция полезности, общая полезность, предельная полезность, кривая безразличия.

KIRISH

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini har tomonlama takomillashtirishga qaratilmoqda. Jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda mazkur tadqiqot sohasiga tegishli boshqa bir qator vazifalar belgilangan va ular bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholi sonining ortib borishi hisobiga iste'mol tovarlari bozoriga talab sezilarli darajada oshdi. Iste'mol tovarlarining asosiy qismini tashkil etuvchi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni xaridorgir holatda bozorga yetkazib berish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, uning ikkinchi tomoni bozor holatini chuqur o'rganish va sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabning to'liq tahlil qilinishini taqozo etadi. Sanoat mahsulotlari bilan bog'liq bozorlar holati va ulardagi o'zgarishlar doimo ishlab chiqaruvchilar diqqat markazida bo'lishi lozim. Bunday e'tibor ularning barqaror faoliyatini ta'minlashga zamin yaratadi. Bu nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki iste'molchilar talabining qondirilishiga ham muhim turtki bo'lib xizmat qiladi.

Marketing yo'nalishi bo'yicha keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda iste'molchilarning bozordagi xulq-atvori va ularning nafilligi masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda. Bozorda iste'molchilarni avvalo tovarning nafilligi qiziqtiradi. Hozirgi kunda bozorda barqaror muvaffaqiyatga erishish uchun insonni faqat tovarni sotib olishga undashgina emas, balki uni tovarni yana xarid qilishga rag'batlantirish, ya'ni iste'molchini doimiy mijozga aylantirish masalalariga ham alohida e'tibor berilmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlarning aksariyat tadqiqotlarida iste'molchilarning qanday harakat qilishlari bilan bog'liq holatlar o'rganilgan. Tadqiqotlarda iste'molchilar nima uchun aynan shunday harakat qilishlari, ya'ni ularning fundamental motivlarining iste'molchi xulqini o'rganishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Del I. Hawkins motiv tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Motiv — bu hatti-harakatga undaydigan va rag'batlantiradigan, shu hatti-harakatning aniq yo'nalishini ta'minlaydigan, ko'rinmaydigan ichki kuchni tasvirlaydigan tuzilma hisoblanadi. Motiv — insonning qandaydir ishni nima uchun qilishidir"¹.

Amerikalik psixolog Allei Ch. N. motivlarni birlamchi va ikkilamchi guruhlariga ajratadi.

Birlamchi motivlarga ovqatlanish, ichimliklarga chanqoqlik, qulay muhit, kasallik va xavfdan qutilish, yaqinlarning farovonligi, to'siqlarni bartaraf etish, o'yin va boshqalar kiradi.

Ikkilamchi motivlarga go'zallik va didlilik, poklilik, ehtiyotkorlik, qiziquvchanlik, ishonchlilik, qadr-qimmat, tejamkorlik va samaralilik, ilmlilik, xabardorlik, ishga qobiliyatlilik, sog'lik va universallik kiritiladi. Olim motivlarga faqat ahamiyatlilik nuqtayi nazaridan yondashgan².

Amerikalik tadqiqotchi D. Shvarts xaridga yo'naltirilgan motivlarni ikki guruhga ajratadi:

hissiy (emotsional) motivlar — hissiyot va tuyg'ularga asoslangan, mantiqqa tayanmaydigan holatlar;

ratsional (oqilona) motivlar — xarid qilishda "qo'shilaman-qo'shilmayman" tarzida mantiqiy tahlil asosida qaror qabul qilish.

Amaliyotda ratsional va hissiy motivlar mahsulot xaridi bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Inson ehtiyojlarining shakllanishiga milliy, tarixiy, geografik omillar, yoshi va jinsi ta'sir etishi qayd etiladi. Olim motivlarni inson fe'l-atvori nuqtayi nazaridan tasniflagan. Biroq ehtiyojlar shakllanishida faqat tabiiy omillar ta'sirini urg'ulab, mahsulot ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar kabi boshqa tashqi omillar ta'siri haqida fikr yuritmag³.

Germaniyalik olim Trommsdorff motivlarni yashirin holat — ya'ni faollashish, xulq-atvorni aniq shiddat va aniq yo'nalishda harakatga keltirish omili sifatida izohlaydi. Faollashish ichki xohishlar yoki noyobliklar natijasida yuzaga keladi. Uning fikricha, motivlarni "umuman boshqarilmaydigan, emotsional" va "umuman boshqariladigan, ratsional" diapazonlari oralig'ida ko'rib chiqish mumkin⁴.

O'zbekistonlik olim M. R. Boltabayev motiv tushunchasini quyidagicha izohlaydi: motiv — kishilarning ma'lum bir hatti-harakatni sodir qilishiga sabab bo'ladigan omil, qondirilgan ehtiyojdir. Biror ehtiyojning qondirilishi harakatlantiruvchi motivga aylanadi. Inson motivatsiya jarayonida xarid vaziyatini besh sezgi — ko'rish, eshitish, hid bilish, sezish va ta'm bilish orqali his qiladi⁵.

N. Q. Yo'ldoshev xaridorga yo'naltirilgan motivlarni quyidagicha izohlaydi: motiv — shunday ehtiyojki, uni qondirish inson uchun qat'iy ahamiyat kasb etadi. Motivlar — iste'molchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, ularning real sharoitlarda muayyan tarzda harakat qilishiga doimiy moyillik beruvchi o'zaro bog'liq sabablardir⁶.

Yuqoridagi olimlar fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, motiv — inson ehtiyojini uyg'otadigan va uni hatti-harakatga yo'naltiruvchi ichki kuchdir.

Naflilik nazariyalari bo'yicha ham ko'plab olimlar o'z qarshlarini bildirganlar. Jumladan, Avstriya iqtisodchilar maktabi namoyondalari K.Menger⁷, Ye.Bem-Baverk⁸, F.Vizerlar⁹ birinchi qatorida talab bilan narx, tovar zaxirasi va uning miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishga o'ringanlar. Ular ta'kidlashicha, chegaralangan resurslar sharoitida ularning hajmi narxga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ketma-ket iste'mol qilinadigan biror ne'matning nafi kamayib borishi haqidagi qonuniyatni aniqlaganlar. Masalan, chanqagan inson bir stakan mineral suvni katta xohish bilan ichadi, ikkinchi stakan suv esa birinchisidek naf bermaydi, uchinchi ikkinchisiga nisbatan kamroq naf beradi va hokazo. Bu jarayon oxirgi stakan suv beradigan naf nolga teng bo'lguncha davom etadi. Bu holatda umumiy (yig'indi) naf oshib boradi, biroq har bir keyingi stakan suvdan olinadigan naf kamayib boradi, natijada chekli naflikning pasayishi kuzatiladi.

1 Consumer behavior: building marketing strategy / Del I. Hawkins, David L. Mothersbaugh. 11th ed. USA.: McGraw-Hill/Irwin, New York, 2010, pg 36

2 www.en.wikipedia.org

3 Основы маркетинга: Учебник / R.K. Saxayev, T.V. Murtuzaliyeva, S.A. Aliyev M.: Izdatelstvo «Eksamen», 2005. 448 s.

4 Trommsdorff, V. (2009). Konsumentenverhalten, 7. Auflage, Kohlhammer, Stuttgart 124 pg

5 Baltaboyev M.R.. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Toshkent. TDIU, 2005-yil

6 Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo'djamuratova G.Y. "Menejment va marketing asoslari": (O'quv qo'llanma). — T.: TDIU, 2013-y. — 256 b.

7 Myenger K. "Issledovaniye metoda sotsialnykh nauk i politicheskoy ekonomii v chastnosti". - M.: Territoriya budushchego, 2005. S. 289-450. ISBN 5-7333-0175-9.

8 Byom-Baverk, Oygen. Osnovy teorii sennosti xozyaystvennykh blag // Izbrannye trudy o sennosti, protsente i kapitale/ Oygen fon Byom-Baverk. - M.: Eksmo, 2009. S. 49-246. -912 s.

9 Fridrix fon Vizer. Problema vmneniya doxoda // Chastnaya organizatsiya xozyaystva na poroge kapitalisticheskoy epoxi / Predisl., komment., sost. V. S. Avtonomova. - M.: Ekonomika, 1992.



“Naflilik” terminini fanga shvetsariyalik matematik olim Daniel Bernulli kiritgan. Uning fikriga ko’ra, naflilik — bu ne’matlarning iste’molchilar u yoki bu ehtiyojlarini qondirish xususiyatidir¹⁰.

Robert Pindayk asarlarida qayd etilishicha, iste’molchi harakatini aniqroq tahlil qilish uchun naflik funksiyasidan foydalaniladi. Naflik funksiyasi — iste’molchining iste’mol qiladigan ne’matlar hajmi bilan ushbu ne’matlarni iste’mol qilish natijasida oladigan naflik darajasini ifodalovchi funksiya hisoblanadi¹¹.

Mashhur iqtisodchilar Makkonel va Bryularning fikriga ko’ra, naflilik ikki turga bo’linadi: umumiy va chekli naflilik. Umumiy naflilik (Total utility) — ne’matni iste’mol qilishdan olinadigan umumiy qoniqishdir. Naflik funksiyasi orqali nafaqat umumiy naflikni, balki chekli naflikni ham aniqlash mumkin. Chekli naflik (MU — Marginal utility) ketma-ket iste’mol qilingan qo’shimcha bir birlik ne’matdan olingan naf yoki umumiy naflilikning o’sgan qismidir¹².

R. M. Nureev o’z kitobida chekli naflilikni quyidagicha izohlaydi: chekli naflilik — bu biror ne’matdan qo’shimcha bir birlik iste’mol qilish natijasida (boshqa ne’matlar iste’moli o’zgarmaganda) iste’molchi tomonidan olinadigan qo’shimcha nafdir. Chekli naflilik — bu naflik funksiyasidan biror ne’mat o’zgaruvchisi bo’yicha olingan xususiy hosila hisoblanadi¹³.

Andreu Mas-Kolellning ta’kidlashicha, ne’mat qancha ko’p bo’lsa, qo’shimcha bir birlik ne’matning qimmati shuncha past bo’ladi. Demak, ne’matning narxi uning umumiy nafliligiga emas, balki chekli nafliligiga bog’liq holda belgilanadi. Naflik funksiyasi naflik darajasining iste’mol qilingan ne’matlar hajmiga bog’liqligini ifodalaydi¹⁴.

Rossiyalik olim Yu. V. Taranuxaning fikricha, odatda, biror ne’matni iste’mol qilish oshganda (boshqa ne’matlar iste’moli hajmi o’zgarmaganda) umumiy naflik ortib boradi, demak, chekli naflik musbat bo’ladi. Biroq shu bilan birga biror ne’matdan har bir qo’shimcha birlik iste’mol (boshqa ne’matlar iste’moli o’zgarmaganda) oldingisiga nisbatan kamroq naf beradi. Ne’matning aynan shu xususiyati chekli naflikning kamayish qonuni deb ataladi¹⁵. Chekli naflilikning kamayish tamoyili Gossenning birinchi qonuni nomi bilan ham yuritiladi. Har qanday tovar iste’molining ko’payishi bilan (qolgan tovarlarning iste’moli o’zgarmasdan) umumiy naflilik oshib, chekli naflilik esa kamayib boradi¹⁶.

O’zbekistonlik olim A. B. Nizamovning fikriga ko’ra, talabni aniqlashning asosida chekli naflilikning kamayish qonuni yotadi. Ma’lumki, iste’molchi uchun ne’matning chekli nafligi kamayib boradi va ishlab chiqaruvchilar qo’shimcha birlik mahsulot sotishlari uchun ne’mat narxini pasaytirishlari zarur bo’ladi¹⁷.

B. T. Salimov boshchiligidagi iqtisodchi olimlar ta’kidlaydilarki, naflilik — individning farovonlik darajasining miqdoriy o’lchovidir. Shunga ko’ra, har bir iste’molchi o’z imkoniyatlaridan kelib chiqib unga maksimal darajada naf yoki qoniqish beradigan, farovonligini oshirishga xizmat qiladigan tovarlar majmuasini tanlaydi¹⁸.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo’lsak, naflilik — bu iste’molchilarning tovarni iste’mol qilishdan oladigan qoniqishidir va uni umumiy hamda chekli naflilik bo’yicha o’rganish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Naflik funksiyasi iste’mol majmuasiga miqdoriy qiymat berish usuli bo’lib, u yuqori afzal ko’rilgan majmuaga yuqori qiymat, pastroq afzal ko’rilgan majmuaga esa pastroq qiymat beradi. Naflik funksiyasi iste’mol majmualarini afzallik darajasiga ko’ra tartiblaydi; ikkita tovarlar majmuasi nafliklari orasidagi farqning o’zi muhim emas, muhim jihat — ularning tartibi. Tovarlarni majmuasini afzalligi bo’yicha tartiblashtirish tartiblashgan naflilik deb ataladi.

Tovarlarni majmuasini faqat tartiblashtirish muhim bo’lgani sababli ularga naflik qiymatini belgilashning yagona usuli mavjud emas. Agar tovarlar majmuasiga naflik beruvchi yagona usul mavjud bo’lsa, unda miqdoriy naflik berishning cheksiz ko’p usulini topish mumkin. Agar (x_1, x_2) majmuaga $u(x_1, x_2)$ naflik qiymatini beruvchi funksiya mavjud bo’lsa, $u(x_1, x_2)$ ni 2 ga yoki boshqa istalgan musbat songa ko’paytirish orqali hosil qilingan funksiya $2u(x_1, x_2)$ ham xuddi shu majmuaga miqdoriy naflik qiymatini beruvchi naflik funksiyasi bo’lib qoladi. Naflik funksiyasining 1 dan katta har qanday musbat songa ko’paytirilishi boshlang’ich funksiyaning monotonligini saqlab qoladi.

10 Bernulli D. Опыт novoy teorii izmereniya jrebiya// Vexi ekonomicheskoy mysli. T.1. Teoriya potrebitelskogo povedeniya i sprosa/ Pod red. V. M. Galperina -SPb.: Ekonomicheskaya shkola, 2000.

11 Pindyck, Robert S., Daniel I. Rubinfeld. Microeconomics. Global Edition. – Copyright 2018, Pearson Education Limited, 2018. P. 787.

12 Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19 th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2012. P. 604.

13 Nureev R. M. Kurs mikroekonomiki. Uchebnik- 3-ye izd.- M.: Norma: INFRA-M, 2014. - 624 s.

14 Andreu Mas-Kolell i dr. Mikroekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. – M.: Delo i Servis, 2016. - 630 str.

15 Taranuxa Yu.V. Mikroekonomika. Uchebnik. – M.: Delo i Servis, 2011. - 580 str.

16 Gossen H. H. Entwicklung der Gesetze des menschlichen Verkehrs, und der daraus fließenden Regeln für menschliches Handeln. -Braunschweig: Friedrich Vieweg & Sohn, 2004.

17 Nizamov A.B. va boshqalar. Mikroiqtisodiyot. O’quv qo’llanma. T: “FAN”, 2015 -246 b.

18 Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2020. - 365 b.



Monoton o'zgartirish naflik funksiyasini musbat songa ko'paytirish ($f(u)=3u$), har qanday musbat sonni qo'shish (masalan: $f(u)=u+20$), u ni toq songa darajaga ko'tarish (masalan: $f(u)=u^2$) orqali amalga oshirish mumkin.

Monoton o'zgartirishda $f(u_2) - f(u_1)$ ning ishorasi $u_2 - u_1$ ning ishorasi bilan bir xil bo'ladi. Agar $f(u)$ aniq bir afzallikni ifodalovchi naflik funksiyasini monoton o'zgartiruvchi funksiya bo'lsa, u holda $f(u(x_1, x_2))$ funksiya ham shu afzallikni ifodalovchi funksiya bo'ladi.

Quyidagi qoidalar monoton o'zgartirishlarni ifodalaydi:

1. $u(x_1, x_2)$ qandaydir aniq bir afzallikni ifodalasa, agar va faqat agar $(x_1, x_2) > (u_1, u_2)$ bo'lsa, unda $u(x_1, x_2) > u(u_1, u_2)$ bo'ladi.
2. Agar $f(u)$ monoton o'zgartiruvchi bo'lsa, agar va faqat agar $f(u(x_1, x_2)) > f(u(u_1, u_2))$ bo'lsa, unda $u(x_1, x_2) > u(u_1, u_2)$ bo'ladi.
3. Natijada $f(u(x_1, x_2)) > f(u(u_1, u_2))$, agar va faqat agar $(x_1, x_2) > (u_1, u_2)$ bo'lganda, $f(u)$ funksiya afzalliklarni boshlang'ich naflik funksiyasi $u(x_1, x_2)$ dagiday mukammal ifodalaydi.

Demak, naflik funksiyasini monoton o'zgartirish, boshlang'ich naflik funksiyasi afzalliklarni ifodalaydigan naflik funksiyasining o'zi. Geometrik nuqtayi nazardan, naflik funksiyasi – berilgan qiymatlarda befarqlik egri chizig'ini ifodalash usuli hisoblanadi.

Befarqlik chizig'ida yotuvchi tovarlar majmuasi bir xil naflikni beradi. Yuqori afzal ko'riladigan tovarlar majmuasi yotgan befarqlik chizig'iga katta qiymat beriladi, kamroq afzal ko'riladigan tovarlar majmuasi yotgan befarqlik chizig'iga kamroq qiymat beriladi. Bunday o'zgartirishlar bir xil afzalliklarni ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Faraz qilaylik, naflik funksiyasi quyidagi ko'rinishda berilgan bo'lsin:

$$u(x_1, x_2) = x_1, x_2$$

Bu naflik funksiyasining befarqlik chiziqlari $k = x_1, x_2$ ($k = \text{const}$) tenglamani qanoatlantiruvchi x_1 va x_2 lar to'plami.

Agar biz x_2 ni x_1 ning funksiyasi ko'rinishida ifodalasak, befarqlik chizig'i formulasini olamiz.

$$x_2 = \frac{k}{x_1}$$

Faraz qilaylik, naflik funksiyasi $u(x_1, x_2) = x_1^2, x_2^2$ ko'rinishda berilgan. Uni quyidagicha monoton o'zgartiramiz:

$$y(x_1, x_2) = x_1^2, x_2^2 = (x_1, x_2)^2 = u(x_1, x_2)^2$$

$y(x_1, x_2)$ naflik funksiyasi bu $u(x_1, x_2)$ naflik funksiyasining kvadrati. Bu funksiyalarning befarqlik chiziqlari bir xil shaklga ega bo'ladi.

Masalan, poyabzal sanoati bo'yicha oladigan bo'lsak, mukammal o'rindosh tovarlar x_1 – tuflilar soni, x_2 – krasovkalar soni. Naflik funksiyasini yozamiz:

$$u(x_1, x_2) = x_1 + x_2$$

Bu naflik funksiyasi naflikni poyafzal yig'indisi bilan o'lchanadi. Ma'lumki, naflik funksiyasi ikkita shartni qanoatlantirishi kerak.

1. Befarqlik chizig'i bo'ylab harakat qilganda, bu naflik funksiyasi bir xil qiymatni oladimi?

2. Naflik funksiyasi yuqori naflikka ega majmuaga kam naflikka ega majmuaga nisbatan yuqori miqdoriy qiymat beradimi?

Yuqoridagi funksiya shu ikkita shartni qanoatlantiradi. Demak, u naflik funksiyasini ifodalaydi.

Yuqoridagi naflik funksiyasi o'rniga boshqa funksiyadan foydalanishimiz mumkin. Masalan:

$$y(x_1, x_2) = (x_1 + x_2)^2 = x_1^2 + 2x_1x_2 + x_2^2$$

Bu funksiya ham mukammal o'rindosh tovarlar uchun naflik funksiyasi bo'ladi.

Iste'molchi "birga-bir" almashtirishdan tashqari bitta birinchi tovardan voz kechganda, uni ikkita ikkinchi tovar bilan almashtirmoqchi bo'lsa, naflik funksiyasi quyidagicha yoziladi:

$$u(x_1, x_2) = 2x_1 + x_2$$

Bu yerda x_1 tovar x_2 tovarga nisbatan iste'molchi uchun ikki barobar ko'p qiymatga ega. Befarqlik chizig'i yotiqligi – 2 ga teng.

Mukammal o'rindosh tovarlar uchun naflik funksiyasini umumiy ko'rinishda quyidagicha yozamiz:

$$u(x_1, x_2) = ax_1 + vx_2$$

a va v lar musbat son bo'lib, 1 va 2 tovarlarning qiymatini ifodalaydi. Befarqlik chizig'i yotiqligi – a/v ga teng.

Masalan, chap va o'ng oyoq poyabzalini qaraydigan bo'lsak, iste'molchini juft poyabzallar soni qiziqtiradi, shu sababli juft poyabzallar sonini naflik funksiyasi deb olsak bo'ladi. Iste'molchidagi juft poyabzallar soni undagi o'ng x_1 va chap x_2 poyabzallar sonining minimumi bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra, mukammal komplementlar uchun naflik funksiyasi quyidagicha ko'rinishda yoziladi:



$$u(x_1, x_2) = \min \{x_1, x_2\}$$

Faraz qilaylik, sizda 10 ta o'ng va 10 ta chap poyabzal bor. Qo'shimcha sizga bitta chap poyabzal berishdi, u holda befarqlik chizig'i shartiga ko'ra:

$$(10, 10) = \min \{10, 11\} = (10, 10) \text{ bo'ladi.}$$

Mukammal komplementlar uchun naflik funksiyasini umumiy holda quyidagicha yozamiz:

$$u(x_1, x_2) = \min \{ax_1, vx_2\}$$

a va v lar musbat son bo'lib, tovarlarni qanday nisbatda iste'mol qilishini bildiradi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, iste'molchilar tovarlarni iste'mol qilishidan oladigan nafilik, ularni tovarni xarid qilish uchun motivlashtiradigan asosiy omil hisoblanadi va istemolchilar tovar iste'molidan oladigan nafilikni sinchkovlik bilan o'rganadilar. Shuning uchun ham iste'molchilarning tovarlarni iste'mol qilishdan oladigan nafiligi marketing tadqiqotlarida iste'molchilarni tovarlar xaridiga motivlashtirishning asosiy omili sifatida o'rganilishi va bu boradagi marketing tadqiqotlari yanada kuchaytirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar faoliyatini modernizatsiya qilish, milliy brendlar raqobatbardoshligini oshirish va iste'mol bozori talabiga mos mahsulotlar taklifini kengaytirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Aholi sonining o'sishi iste'mol tovarlari bozorida talabni jonlantirdi, bu esa ishlab chiqaruvchilardan nafaqat yuqori sifatli mahsulot yetkazib berishni, balki bozordagi o'zgarishlarni doimiy monitoring qilishni, xaridorlar ehtiyojini chuqur o'rganishni ham talab etmoqda. Bunday jarayonda marketing tadqiqotlarining roli kuchayib, ayniqsa iste'molchilarning xulq-atvori, ularni xaridga undovchi motivlar va nafilik tushunchasi bozor strategiyalarini shakllantirishda asosiy mezonga aylandi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan qarashlar iste'molchi xulqini anglashda motivatsiya va nafilik nazariyalarining markaziy o'rinda turishini ko'rsatadi. Motivning ichki psixologik kuch sifatida harakatga yo'naltiruvchi xususiyati, shuningdek, chekli nafilikning kamayish qonuni, befarqlik egri chiziqlari va mukammal o'rindosh hamda komplementar tovarlar haqidagi nazariy talqinlar iste'mol qarorlarini izohlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nazariyalar asosida iste'molchi uchun mahsulotning nafi, sifatga bo'lgan talab, funksional afzalliklar, emotsional qadriyatlar va ratsional baholash jarayonlari birgalikda uning xarid qaroriga ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi.

Shu bois sanoat korxonalari uchun asosiy vazifa iste'molchilar ehtiyojini to'g'ri aniqlash, mahsulotning nafilik darajasini oshirish, xaridorni birinchi xariddan so'ng ham brendga sodiq qolishga unday oladigan marketing strategiyalarini ishlab chiqishdan iboratdir. Nafilik funksiyalarini o'rganish va ularning amaliy talqinlari mahsulot assortimentini shakllantirish, narx siyosatini belgilash, bozor segmentlarini tanlash hamda iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishda ilmiy asoslangan yondashuvni kuchaytiradi. Mazkur nazariy va amaliy qarashlarga tayangan holda marketing tadqiqotlarini kengaytirish, iste'molchi motivatsiyasini chuqur o'rganish va bozor strategiyalarini ilmiy asosda takomillashtirish sanoat mahsulotlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Consumer behavior: building marketing strategy / Del I. Hawkins, David L. Mothersbaugh. 11th ed. — USA: McGraw-Hill/Irwin, New York, 2010. — p. 36.
2. Основы маркетинга: Учебник / Р.К. Цахаев, Т.В. Муртузалиева, С.А. Алиев. — М.: Издательство «Экзамен», 2005. — 448 с.
3. Trommsdorff V. Konsumentenverhalten. 7 Auflage. — Kohlhammer, Stuttgart, 2009. — 124 p.
4. Балтабоев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Тошкент: ТДИУ, 2005-йил.
5. Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo'djamuratova G.Y. "Menejment va marketing asoslari" (O'quv qo'llanma). — T.: TDIU, 2013-y. — 256 b.
6. Менгер К. «Исследование метода социальных наук и политической экономии в частности». — М.: Территория будущего, 2005. — с. 289–450. ISBN 5-7333-0175-9.
7. Бём-Баверк Ойген. Основы теории ценности хозяйственных благ // Избранные труды о ценности, проценте и капитале / Ойген фон Бём-Баверк. — М.: Эксмо, 2009. — с. 49–246. — 912 с.
8. Фридрих фон Визер. Проблема вменения дохода // Частная организация хозяйства на пороге капиталистической эпохи / Предисл., коммент., сост. В.С. Автономова. — М.: Экономика, 1992.
9. Бернулли Д. Опыт новой теории измерения жребия // Вехи экономической мысли. Т. 1. Теория потребительского поведения и спроса / Под ред. В.М. Гальперина. — СПб.: Экономическая школа, 2000.
10. Pindyck Robert S., Rubinfeld Daniel L. Microeconomics. Global Edition. — Pearson Education Limited, Copyright 2018. — p. 787.



11. Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. 19th ed. — New York: The McGraw-Hill Companies, Inc., 2012. — p. 604.
12. Нуреев Р.М. Курс микроэкономики. Учебник. 3-е изд. — М.: Норма: ИНФРА-М, 2014. — 624 с.
13. Андреу Мас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. — М.: Дело и Сервис, 2016. — 630 стр.
14. Тарануха Ю.В. Микроэкономика. Учебник. — М.: Дело и Сервис, 2011. — 580 стр.
15. Gossen H.H. Entwicklung der Gesetze des menschlichen Verkehrs und der daraus fließenden Regeln für menschliches Handeln. — Braunschweig: Friedrich Vieweg & Sohn, 2004.
16. Низамов А.Б. ва бошқалар. Микроиқтисодиёт. Ўқув қўлланма. — Т.: “ФАН”, 2015. — 246 б.
17. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik. — Т.: Iqtisodiyot, 2020. — 365 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
